**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

**SIDDIKOV JAXONGIR NOSURILLOYEVICH**

**ERGONIMLARNING LINGVISTIK TADQIQI
(o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2024**

**Filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences**

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

**SIDDIKOV JAXONGIR NOSURILLOYEVICH**

**ERGONIMLARNING LINGVISTIK TADQIQI
(o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3189 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Andijon davlat chet tillari instituti veb sahifasi (www.adchti.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Rustamov Dilshodbek Abduvahidovich**<br>filologiya fanlari doktori, professor |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Abduvaliyev Maxamatjon Arabovich**<br>filologiya fanlari doktori, professor |
| | **Muyassar Saparniyazova**<br>filologiya fanlari doktori, professor |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Namangan davlat universiteti** |

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "_____" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Andijon shahar, Bobur shohko'chasi, 5-uy. Tel: (74)223-42-76; faks: (74)223-42-76; e-mail: asifl@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100 Andijon shahar, Bobur shohko'chasi, 5-uy. Tel: (74)223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "_____" _____kuni tarqatildi.
(2024-yil "_____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

**V.A.Vositov**
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, f.f.d. (DSc), dotsent

**A.Dj.Ataboyev**
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.f.f.d. (PhD), dotsent

**M.I.Umarxodjayev**
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d.,
professor

**KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** XXI asrning birinchi choragida jahon siyosati, iqtisodiyoti, xalqlar va millatlarning ijtimoiy hayoti va tafakkurida sodir bo'lgan evrilishlar ilm-fanning barcha sohalaridagi qarashlarni tubdan o'zgartirib yubordi. Bu o'zgarishlar birinchi galda ijtimoiy hayotning o'ziga xos ko'zgusi sanalgan milliy tillarda o'z aksini topdi. Bundan o'zbek tili ham chetda qolmadi. Mamlakatimizda Mustaqillik yillarida ona tilimizga bo'lgan davlat siyosati yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Keyingi to'rt-besh yil ichida yurtimizda «O'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari, vazifalari va istiqboldagi bosqichlarini belgilash»[1] yuzasidan olamshumul ishlar amalga oshirildi. O'zbek tilining barcha sathlarida e'tirofga loyiq ilmiy-tadqiqot ishlari bajarildi. Lekin, shunga qaramasdan, tilshunoslik sohasida o'z yechimini kutib turgan ko'plab muammolar mavjud. Shulardan birini korxona, tashkilot, muassasalarning nomlari, ya'ni onomastikaning zamonaviy yo'nalishlaridan biri sanalgan ergonimika tashkil etadi.

Dunyo tilshunosligida bugungi kunda onimlarning turli aspektlarda tadqiqot obyektiga aylantirilishi muayyan tillarning tarixiy taraqqiyoti va takomilini yoritishda, xalqlarning milliy, etnik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy tarixini, milliy tillarni o'ziga xos jihatlarini ochib berishda muhim vosita sanalmoqda. Ergonomik birliklarni lisoniy jihatdan tahlil qilish, xalqimizning ko'p asrlik tarixiy-milliy an'analari, madaniyati va mental xususiyatlarini ergonimlar asosida ifoda ettirish sof o'zbekona ehtiyoj sifatida qimmat kasb etib, tilshunoslar oldiga kuzatish, tavsiflash, qiyoslash, sistem-struktur va statistik tahlil usullari asosida yangidan yangi tadqiqot ishlarini amalga oshirish vazifasini qo'ymoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida ta'kidlanganidek: «Jamiyatimizda til bilan bog'liq eng ko'p muhokama qilinayotgan, haqli e'tirozlarga sabab bo'layotgan mavzu – bu joy nomlarini belgilash masalasi, desak, xato bo'lmaydi. Afsuski, jamoat joylarida, ko'chalarda, binolar peshtoqida toponimik belgilar, turli lavha va reklamalar ko'pincha xorijiy tillarda, ma'naviyatimizga yot mazmun va shakllarda aks ettirilmoqda. Bu davlat tili talablariga, milliy madaniyat va qadriyatlarimizga bepisandlikdan, umumiy savodxonlik darajasi esa tushib ketayotganidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan, Vazirlar Mahkamasi Atamalar komissiyasi bilan birgalikda ushbu masalalarni keng jamoatchilik ishtirokida jiddiy o'rganib chiqishi va tartibga solishi zarur. Chunki ijtimoiy obyektlarga nom berish – bu shunchaki shaxsiy yoki xususiy ish emas. Bu barchamizning vatanparvarlik va ma'naviy saviyamizni yaqqol ko'rsatadigan o'ziga xos mezondir. Buni hech kim

---

[1] Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi//Xalq so'zi, 2019-yil 22-oktyabr kungi 218-son (7448). 3-b.

hech qachon unutmasligi kerak»[2]. Uchinchi Renessansga qadam qo'ygan O'zbekiston davlati uchun xalqimizning ko'p asrlik tarixiy-milliy an'analari, orzu-umidlari, his-tuyg'ulari, axloqiy qadriyatlari va xohish-istaklarini o'zida yaqqol ifoda etuvchi korxona, tashkilot, muassasalar nomini to'plash, tasniflash va ular ustida lingvistik tadqiqotlar olib borish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda Andijon viloyati ergonimlarining ilk bor tadqiqqa tortilganligi mavzuning dolzarbligini ta'minlaydi.

Dissertatsiya uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2019-yil 21-oktyabrdagi «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5850-sonli[3] 2020-yil 20-oktyabrdagi «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-6084-sonli Farmonlari[4] kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asos vazifasini o'tadi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida 60-70-yillarda korxona, tashkilot, muassasa nomlari J.R.Mellor, F.Aurigi, G.Aiyelo, Z.Jones, M.Karrabekning tadqiqotlarida urbonim sifatida o'rganildi[5]. Rus tilshunosligida ham shu yo'nalishda V.V.Kolesov, A.A.Yunakovskaya, O.A.Leontovich, R.Kozlovlar tomonidan bir qator ishlar bajarildi[6].

Ergonimlarning lingvistik landshaftdagi o'rni (Moskva), reklama bilan bog'liq jihatlari (Volgograd), ergonimlarning sistemaviy xarakteri

---

[2] Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so'zi, 2019-yil 22-oktyabr kungi 218-son (7448). 3-b.

[3] Mirziyoyev Sh.M. Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli // O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq // Xalq so'zi. – Toshkent, 2019-yil 22-oktyabr. – № 218. 1-4-b.

[4] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son Farmoni // Xalq so'zi, 2019-yil 20-oktyabr. – № 222-223.

[5] Mellor J.R. Urban Sociology in an urbanized society. – London: Routledge & Kegan Paul, 1977. – 328 p.; Aurigi A. Making the digital city. – Aldershot: Ashgate, 2005. – 236 p.; Aiello G., Tosoni S. Going about the city: Methods and methodologies for Urban Communication Research – Introduction // International Journal of Communication. – 2016. – Vol. 10. 1252-1262 p.; Jones R.H. The city is watching you // City talk: Urban Identities, Mobilities and Texualities. – Bern: University of Bern, – 2017. – 7 p.; Karrebek M. Food, language and the city : Constructing edible 'Danish-ness' in Copenhagen // Abstracts of the conference «City Talk: Urban Identities, Mobilities and Textualities». – Bern: University of Bern, 2017. – 8 p. va boshq.

[6] Колесов В.В. Язык города. – М.: Высшая школа, 1991. – 192 с.; Юнаковская А.А. «Язык города» как лингвистическая проблема // Вестник Омского университета. – 2011. – № 3. 193 – 197 с.; Леонтович О.А. «Город говорит с тобой»: Научные подходы к анализу медиаурбанистического дискурса // Известия Волгоградского государственного педагогического университета. – 2019. – № 8 (141). 129 – 133 с.; Козлов Р.И. Эргоурбонимы как новый разряд городской ономастики [электрон. ресурс]: Дисс. канд. филол наук: спец. 10.02.01. – Екатеринбург, 2000. – 151 с. ва бошқ.

6

(Maxachkala), leksik-semantik va derivatsion xususiyatlari (Samara), grafik ko‘rinishlari (Krosnadar), pragmatik jihatlari (Volgograd) yuzasidan tadqiqotlar olib borildi.

O‘zbek tilshunosligida ergonimlar onomastik ko‘lamning ajralmas qismi sifatida endigina o‘rganila boshlandi. Mamlakatimizda davlat tiliga bo‘lgan Hukumat e’tiborining yangi sifat bosqichiga ko‘tarilishi, O‘zbekiston davlatining ochiq jamiyatga aylanishi, sanoat, ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, ta’lim-tarbiya tizimlarida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar, barcha sohaga xorij tajribalarining kirib kelishi o‘zbek onomastikasida ham yangilanish davrini boshlab berdi: onomastik ko‘lamning tadqiq doirasi kengaydi, yo‘nalishga sistem-struktur, lingvomadaniy, antropotsentrik aspektlardan turib yondashuv ishlari kuchaydi. S.Ro‘zimboyev va S.Yangibayevalarning «Ergonimlarning ma’no qirralari», A.S.Shcherbakning «Onomastikaning ekologik muammolari» (Samarqand ergonimlari misolida) nomli maqolalari ergonimlarni o‘rganishda ilk qadamlar bo‘ldi[7]. M.Saparniyazova, D.Xudoyberganova, D.Lutfullayeva, J.O‘rozov, R.Davlatovalarning nom yaratishning lingvomadaniy xususiyatlari, lingvistik-me’yoriy asoslari, ergonimik nomlar lug‘atini tuzish bo‘yicha amalga oshirgan ishlari lingvistik tadqiqotlar olib borish uchun yo‘l ochib berdi[8]. O.Shukurov, M.Saparniyozovaning doktorlik ishi yuzaga keldi[9].

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat chet tillar institutining "Tilning leksiko-semantika tizimi, qiyosiy tipologik tadqiqotlar va adabiyotshunoslik muammolari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ish rejasi doirasida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Andijon viloyatidagi korxona, tashkilot, muassasalarga qo‘yilgan nomlarni to‘plash, ularni lingvistik tahlildan o‘tkazish, davlat tili talablariga javob bermaydigan ergonimlarning faoliyat doirasini o‘rganish, ergonimlarni qo‘llashdagi xato va kamchiliklarni aniqlash, ilmiy asoslangan yangi nomlarni rasmiy muomalaga kiritish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan ergonimlarni to‘plash, va shu asosda o‘zbek onomastikasida sodir bo‘layotgan bugungi jarayonlarning qonuniyatlarini ochib berish;

---

[7] С.Рўзимбоев, С.Янгибаева. Эргонимларнинг маъно қирралари / Илм сарчашмалари. – 2017. – 11-сон. 92–96 б.; Щербак А.С. Экологические проблемы ономастики. В сборнике: Экология языка и речи. Материалы X Международной научной конференции. – Тамбов, 2023. 101-104 с.

[8] Saparniyazova M., O‘rozov J. O‘zbek tilida nom yaratishning lingvomadaniy xususiyatlari. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Xudoyberganova D. Tashkilot, korxona va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug‘ati. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Lutfullayeva D., Saparniyazova M., Davlatova R. O‘zbek tilida nom yaratishning lingvistik-me’yoriy asoslari. – Toshkent: Malik Print CO, 2022; Saparniyazova M., Ahmedova N. Hududiy nomlar ko‘rsatkichi (Toshkent shahar Chilonzor va Shayxontohur tumanlari). – Toshkent: Malik-Print CO, 2022. – 310-b.; Lutfullayeva D., Saparniyazova M. Neyming: tilda nom yaratish texnologiyasi // O‘zbekistonda xorijiy tillar. – 2020. 6-son (35); Lutfullayeva D., Saparniyazova M. O‘zbek tilida nom yaratishda antroponimlardan foydalanish amaliyoti // "Tilshunoslikdag muammo va yechimlar" mavzusidagi xalq. ilmiy-amaliy onlayn konf.mat. – Andijon, 2020. 197-b.

[9] Shukurov O. "O‘zbek tili zamonaviy o‘zlashmalarining evolyutsiyasi, transformatsiyasi va leksikografik talqini masalalari" (Mustaqillik davri): Filol. fan. d-ri (DSc) …diss. avtoref. – Qarshi, 2022. 49-b.; Saparniyozova M. O‘zbek tili ergonimlarining struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi: Filol. fan. d-ri (DSc) …diss. avtoref. – Toshkent, 2023. 47-b.

ergonimlarning onomastik ko‘lamning bir qismi sifatida ko‘lamchalarga, ularning o‘z navbatida kichik ko‘lamchalarga bo‘linib ketish qonuniyatlarini ko‘rsatib berish;

neyming va ergonimika o‘rtasida umumiylik va xususiylikni aniqlash;

ergonimlarning hosil bo‘lish tamoyillarini topish;

ergonimlarni yaratishda ingliz tilining ta’sirini ko‘rsatish, ingliz tili elementlaridan o‘rinsiz foydalanish holatlarini aniqlash;

ergonimlarni qo‘llashdagi xatoliklarni tadqiq etish;

davlat tili talablari asosida ergonimlarni hosil qilish yuzasidan taklif va mulohazalarni bayon etish.

**Tadqiqotning obyekti.** Andijon viloyati statistika va soliq qo‘mitasi ro‘yxatidan o‘tgan 27000 dan ortiq (shundan 7617 tasi Andijon shahrida faoliyat ko‘rsatadi), jumladan, 18101 ta mas’uliyati cheklangan jamiyat, 1934 ta oilaviy korxona, 216 ta unitar korxona, 6459 ta xususiy korxona, 40 ta aksiyadorlik jamiyati, 411 ta boshqa turdagi nodavlat va notijorat korxonalari, muassasa va tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari nomlari mazkur dissertatsiyaning asosiy o‘rganish obyekti sanaladi.

**Tadqiqotning predmetini** ergonimlarning struktur-semantik, pragmatik hamda lingvomadaniy xususiyatlari tashkil qiladi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiya ishini bajarishda kuzatish, tavsiflash, qiyoslash, sistem-struktur va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bugungi global dunyoda milliy tillarning o‘rni, ularning ichki strukturasida sodir bo‘layotgan jarayonlar ergonimlar misolida ko‘rsatilgan, milliy tillarga chetdan bo‘layotgan ta’sirlar, xususan, ingliz tilining o‘zbekcha nomlarga ko‘rsatayotgan ta’siri ochiqlangan;

Andijon viloyati ergonimlarining ichki bo‘linishlari aniqlangan, ergonimlarning antropoergonimlar, topoergonimlar, fitoergonimlar, zooergonimlar, oronimoergonim, gidroergonimlar, anemonoergonimlar kabi leksik-semantik guruhlarga bo‘linib ketish qonuniyatlari tadqiq qilingan;

ergonimlarning ichki va tashqi imkoniyatlar asosida hosil qilinishi qoliplari aniqlangan, kompaniya, firma, brend hamda ishlab chiqarish, savdo obyektlari, mahsulotlarga nom qo‘yish (neyming) xizmatini tashkil qilishning yutuq va kamchiliklari ko‘rsatilgan;

tashqi imkoniyat va aralash usulda hosil qilingan ergonimlar tarkibidagi ingliz tili elementlariga ekstralingvistik nuqtai nazardan baho berilgan, ergonimlarni hosil qilishda o‘rinsiz qo‘llangan ingliz tiliga oid birliklar tahlilga tortilgan, ularning asos tildagi holatlari o‘zbek tiliga solishtirilgan, ilmiy xulosalar chiqarilgan;

davlat tili sofligini saqlash, uni boyitib borish va ergonimlardan foydalanishda aholining nutq madaniyatini oshirish yuzasidan mulohazalar bayon etilgan, ergonimlarni qo‘llashda davlat tili qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq holatlar aniqlangan, ularni bartaraf etish yuzasidan taklif, mulohazalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan ergonimlarning mavzuviy tasnifida, ularning tarkibidagi inglizcha va boshqa tillarga oid elementlarning o'rinsiz qo'llanganini ochib berishda, ergonimlarni qo'llashdagi xatoliklarni ko'rsatish va to'g'rilash yuzasidan bildirilgan taklif hamda mulohazalarda o'z aksini topgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilishi, chiqarilgan xulosalarning qat'iyligi, korxona, muassasa ва tashkilot nomlarining batafsil tahlilga tortilgani, nom qo'yishdagi yutuq ва kamchiliklarning aniq ko'rsatilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy ва amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek tili ergonimlarining leksik-semantik, funksional-uslubiy, pragmatik xususiyatlari aniqlangani, korxona, muassasa, tashkilotlarga nom qo'yishning nazariy asoslariga doir yangi ilmiy qarashlarning bayon etilgani, Andijon viloyati ergonimlarining lingvistik jihatdan batafsil tahlil etilgani, xato va kamchiliklarining ko'rsatib berilganida ko'rinadi. Dissertatsiyada keltirilgan fikr-mulohazalar o'zbek ergonimikasini nazariy va amaliy jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari va tahlillardan «O'zbek onomastikasi», «Toponimika», «O'zbek antroponimikasi», «O'zbek tili ergonimlari», «O'zbek tilining sohada qo'llanilishi», «Davlat tilida ish yuritish» fanlari bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratishda, davlat tili targ'ibotida, toponimik komissiya faoliyatida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Andijon viloyatidagi korxona, tashkilot, muassasalarga qo'yilgan nomlar – ergonimlarning leksik-semantik, struktur va pragmatik tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

davlat tili sofligini saqlash, uni boyitib borish va ergonimlardan foydalanishda aholining nutq madaniyatini oshirish, ergonimlarni qo'llashda davlat tili qoidalarining buzilishi bilan bog'liq holatlar aniqlash, ularni bartaraf etish yuzasidan bayon etilgan xulosalardan 2019-2022-yillarga mo'ljallangan A-OT-2019-10 raqamli «O'zbek tilida neyming: me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish» mavzusidagi amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 13-iyundagi 04/1-1574-son ma'lumotnomasi). Natijada Andijon viloyatidagi o'zbek va ingliz tillarida faoliyati yo'lga qo'yilgan ergonimik nomlarni tartibga solish, ulardan foydalanishda uchraydigan xato va kamchiliklarni aniqlash, yangi nomlarni ilmiy jihatdan asoslash jarayonlari faktik-analitik materiallar asosida dalillangan;

Andijon viloyatidagi korxona, tashkilot, muassasalarga qo'yilgan nomlarni to'plash, ularni lingvistik tahlildan o'tkazish, davlat tili talablariga javob bermaydigan ergonimlarning faoliyat doirasini o'rganish, ergonimlarni qo'llashdagi xato va kamchiliklarni aniqlash, ilmiy asoslangan yangi nomlarni rasmiy muomalaga kiritish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan ERASMUS+ dasturi doirasida IQAT – "Enhancing capacities in implementation of institutional quality assurance systems and typology using bologna process

principles" mavzusidagi 561685-EPP-1-2015-1-CZ-EPPKA2-CBHE-JP – raqamli (2015-2017) xalqaro loyihasini amalga oshirishda va belgilangan vazifalarni bajarishda keng foydalanilgan. (Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universitetining 2024-yil 15-maydagi № 32-02-567-sonli ma'lumotnomasi). Natijada dunyoda milliy tillarning o'rni, ularning ichki strukturasida sodir bo'layotgan jarayonlar ergonimlar misolida ko'rsatilgan, milliy tillarga chetdan bo'layotgan ta'sirlar, xususan, ingliz tilining o'zbekcha nomlarga ko'rsatayotgan ta'siri ochiqlangan;

viloyatdagi ergonimlarni lingvistik tahlildan o'tkazish, korxona, tashkilot va muassasalarni nomlashda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, neyming, ergonimlarni yaratishda ingliz tilining ta'sirini aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan Qo'qon davlat pedagogika institutida 2020-2022-yillarda bajarilgan S-ECAGD-18-CA-0067 (P020002335) raqamli "FY-18 English Access Microscholarship program" nomli Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim va madaniy ishlar byurosi bilan hamkorlikdagi xalqaro loyihasini amalga oshirishda va belgilangan vazifalarni bajarishda keng foydalanilgan. (Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika institutining 2024-yil 15-avgustdagi 90-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ergonimika sohasini muayyan ilmiy-nazariy qarashlar va faktlar bilan boyitilishiga, korxona, tashkilot va muassasalarni nomlashda yuz bergan lisoniy, ijtimoiy, tarixiy o'zgarishlarni kuzatish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan va ma'qullangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, ulardan 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 164 sahifa.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsad va vazifalari, predmeti va obyekti aniqlangan. Mavzuning xorijda va mamlakatimizda o'rganilganlik darajasi qayd qilingan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchli ekanligi asoslangan, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Onomastik tizim va unda ergonimlarning tutgan o'rni"** deb nomlangan birinchi bobi uch bo'limdan iborat. Bobning **"Ergonim va uning turlari haqida ma'lumot"** nomli birinchi bo'limida onomastik ko'lam va uning zamonaviy yo'nalishlari jumladan, shaharlashish jarayonlarining bugungi shiddati natijasida paydo bo'lgan tilshunoslikning yangi sohasi – urbanolingvistika, uning kichik ko'lamchasi sanalgan ergonimlar haqida so'z boradi.

Til murakkab, keng tarmoqli, o'ziga xos sistema sifatida son-sanoqsiz qismlarga bo'linib ketadi va har bir qism o'zidan katta bo'lakning ichiga zaruriy komponent sifatida kirib boradi. Tilning har bir bo'lagi alohida, shu bilan birga o'zidan boshqa bo'laklarning mavjud bo'lishini taqazo etuvchi o'ziga xos mustaqil komponent sanaladi. Ana shunday qismlardan birini leksik sathning ajralmas bir bo'lagi sanalgan *onomastika* tashkil etadi.

Ta'kidlash lozimki, har qanday fan, jumladan, onomastika asosini ham ma'lum tushunchalar tashkil etadi. Har qanday tushuncha esa bu – termin sanaladi. Termin esa fanning "mayog'idir"[10]. **Onomastika** [yunoncha: *onomastike – nomlash, nom qo'yish san'ati*]. 1. Tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganadigan bo'limi. 2. Muayyan tilda mavjud bo'lgan barcha atoqli otlar majmui[11].

O'zbek onomastikasi tilimizning eng boy va sermahsul qatlamlaridan birini tashkil etadi. Ularni o'rganish nafaqat til bo'yicha, balki o'zbek xalqi tarixi, hamyurtlarimizning dunyoqarashi, ularning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va maishiy hayoti to'g'risida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishimiz uchun keng imkoniyatlarni yaratib beradi. Ayniqsa, bugun dunyo tillari taqdirida yo'qolib ketish xavfi avj olgan bir paytda onomastik nomlarga qaytish, tarixiy tajribalarga tayangan holda yangi paydo bo'layotgan tashkilot, firma, do'kon va shu kabilarga munosib nom berish ona tilimiz barqarorligini ta'minlashda muhim tayanch vazifasini o'tashi mumkin.

Urban lingvistika yoki urbanolingvistika (lotincha: *urbanus – shaharga oid, shaharda yashovchi + lingua – til so'zlaridan olingan bo'lib*) tilshunoslikning zamonaviy shaharlarning lisoniy qiyofasini tadqiq etish maqsadida paydo bo'lgan istiqbolli yo'nalishi sanaladi[12]. Urbonimlarni o'rganadigan toponimika bo'limiga urbanonimika deyiladi[13]. Ingliz, rus, ukrain, belorus va boshqa tillarda mazkur atama ostida birlashgan *astionim, agoronim, xoronim, godonim, oykodonim, ekklezionim, ergonim, firmonim, emporonim, trapezonim* singari nomlar bir-biridan farqlangan. Dunyo tilshunosligida

---

[10] Фердинанд де Соссюр. Курс общей лингвистики//Труды по общему языкознанию. – Москва: Прогресс, 1977. – 39 с.

[11] Rustamov D.A. Andijon lug'atshunoslik va tarjimashunoslik amaliy-ilmiy innovatsion maktabining yaratilish tarixi, bugungi kuni va istiqbollari xususida/O'zbekistonda zamonaviy lug'atshunolsik va tarjimashunoslikning dolzarb masalalari (bir tilli, ko'p tilli, terminologik, frazeologik hamda elektron lug'atlar tuzish masalalari) mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 1-qism. – Andijon, 2023-yil 15-sentyabr. – ADU bosmaxonasi, 2023. 4-9-betlar.

[12] Степанов Е. Н. Структурно-функциональная модель урбанолингвистического исследования в Украине / Е.Н.Степанов // Мова: Науково-теоретичний часопис з мовознавства. – № 15 / Одес. нац. ун-т ім. І. І. Мечникова. – Одеса: Астропринт, 2010. 13-19 с.

[13] Подольская Н.Г. Словарь ономастической терминологии. – Москва: Наука, 1988. –139 с.

yuqoridagi til hodisalari, jumladan, ergonimlar bo'yicha bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilgan. Ergonimlar shulardan biri sanaladi.

Oksford lug'atida ergonimga quyidagicha izoh berilgan: "Ergonomics – The scientific study of the efficiency of people in their working environments" (1950 y)[14]. O'zbek nomshunosligining asoschilaridan sanalgan E.Begmatovning fikricha: «Narsa va hodisalarni, obyektiv olamdagi barcha mavjud borliqni umumlashtirib nomlash inson tafakkuri va tilining ulug' mo'jizasidir. Ammo, jamiyatning kundalik muloqoti, lisoniy hayoti uchun zarur bo'lgan ikkinchi bir ehtiyoj ham bor. Bu obyektiv borliqdagi narsa va hodisalar, tirik mavjudotlarning har birini alohida, yakkalab, donalab nomlashdir»[15].

Tadqiqot ishimizda ergonimlar quyidagi turlarga ajratdik: antropoergonimlar, topoergonimlar, fitoergonimlar, zooergonimlar, kosmoergonimlar, gidroergonimlar. Onomastik ko'lam o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan rang-barang va serqirra tizim sifatida o'zbek tilining leksik qatlamida alohida o'rin tutadi va o'z ichida ko'plab mikroko'lamlarga bo'linib ketadi. Antropoergonimlar, topoergonimlar, gidroergonimlar, zooergonimlar, kosmoergonimlar kabi kichik ko'lamchalar shular jumlasidandir. Ularni hosil qilishda keyingi yillarda ingliz tiliga oid leksik birliklar faollashdi. Paradigmatik, sintagmatik, semantik, funksional-uslubiy, grammatik xususiyatlariga ko'ra ergonimlar bir-biriga zidlanadi, o'z navbatida nom asosida bitta chiziqda birlashadi.

Bobning **"Ingliz, rus va o'zbek tillarida ergonimlarning o'rganilish tarixi"** nomli ikkinchi bo'limida onomastika, xususan ergonimlarning ingliz, rus va o'zbek tillaridagi o'rganilishi haqida so'z boradi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlariga kelib Yevropada ishlab chiqarish ko'lamining kengayishi, yangi zavod va korxonalarning barpo etilishi, jahon bozorida o'zaro raqobatning paydo bo'lishi lingvistikaning yangi istiqbolli yo'nalishi bo'lgan ergonimikaga asos soldi. Ergonimlarga bo'lgan qiziqish o'tgan asrning 60-yillaridan boshlandi. Dastlab shaharlardagi magazin, do'kon, peshlavhalar tili ustida ilmiy izlanishlar olib borildi. Yevropa tillarida ergonimlar Dj.R.Mellor, A.Aurigi, G.Aello, S.Tasoni, R.Jones, M.Karrabekning ishlarida urbonim yoki urbanonim nomi ostida tadqiq etildi[16].

Rus tilida ham ergonimlar dastlab shahar tili ichida o'rganildi. V.V.Kolesov, A.A.Yunakovskaya, O.A.Leontovich, R.Kozlovning tadqiqotlarida ergonimlar urbanolingvistika va ergourbonim sifatida izohlandi[17]. Ergourbonim termini ilk bor A.V.Superenskaya tomonidan fanga olib kiritildi.

---

[14] Oxford dictionary of Current English. The world's most trusted dictionaries. Oxford university press.
[15] Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. 7-8 б.
[16] Mellor J.R. Urban Sociology in an urbanized society. – London: Routledge & Kegan Paul, 1977. – 328 p.; Aurigi A. Making the digital city. – Aldershot: Ashgate, 2005. – 236 p.; Aiello G., Tosoni S. Going about the city: Methods and methodologies for Urban Communication Research – Introduction // International Journal of Communication. – 2016. – Vol. 10. – P. 1252-1262; Jones R.H. The city is watching you // City talk: Urban Identities, Mobilities and Texualities. – Bern: University of Bern, 2017. – 7 p.; Karrebek M. Food, language and the city: Constructing edible 'Danish-ness' in Copenhagen // Abstracts of the conference «City Talk: Urban Identities, Mobilities and Textualities». – Bern: University of Bern, 2017. – 8 p. ва бошқ.
[17] Колесов В.В. Язык города. – М.: Высшая школа, 1991. – 192 с.; Юнаковская А.А. «Язык города» как лингвистическая проблема //Вестник Омского университета, 2011. – № 3. 193-197 с.; Леонтович О.А.

Rus tilshunosligida bajarilgan ishlar ta'sirida o'zbek onomastikasining ko'lami kengayib bordi va asrimizning ikkinchi o'n yilligida o'zbek tilida ergonimlarga bag'ishlangan tadqiqot ishlari ko'rina boshladi. Ergonimlar bo'yicha o'zbek tilida bajarilgan dastlabki ishlardan biri sifatida B.Qurbonovaning «Korxona, muassasa nomlarining semantik tasnifi» nomli maqolasini ko'rsatish mumkin. Unda *zavod, fabrika, devon, bojxona, baza, kon, maktab, gimnaziya, kutubxona* kabi nomlar *«yirik»*, *«kichik»* hamda *«hajmga betaraf»* semalari orqali muayyan semantik guruhlarga ajratilgan[18], lekin tahlil yuqoridagi nomlar bilan chegaralanib qolgan. O'zbek tilshunosligida nom yaratishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish endigina boshlandi. Bu sohada bajarilgan ishlarga B.Qurbonova, S.Ro'zimboyev, S.Yangibayeva, A.S.Shcherbaklarning maqolalarini, M.Saparniyazova, J.O'rozov, D.Xudoyberganova, D.Lutfullayeva, Z.Davlatovalarning lug'atlari va ilmiy izlanishlarini kiritish mumkin.

Bobning uchinchi bo'limi **"Andijon viloyati ergonimlarining o'zbek va ingliz tillaridagi qiyosiy-chog'ishtirma tahlili"** deb nomlanadi. Bugun dunyo tillarida, jumladan, ingliz va o'zbek tillarida kechayotgan jarayonlarni oldingilari bilan mutlaqo tenglashtirib bo'lmay qoldi. Ingliz tili XXI asrga kelib dunyo bo'ylab tarqalayotgan ma'lumotlar oqimining asosiy qismini qamrab olgan global tilga aylandi. Bu unga jahondagi boshqa tillarga kuchli ta'sir ko'rsatish imkonini berdi. Bundan o'zbek tili ham chetda qolmadi. Ingliz tiliniing ta'siri ayniqsa, onomastik nomlarda, jumladan, ergonimlarda yaqqol ko'zga tashlandi. Andijon viloyatida ergonimlar miqdori 27161 tani tashkil etadi. Ulardan 18101 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyat, 1934 tasi oilaviy korxona, 216 tasi unitar korxona, 6459 tasi xususiy korxona, 40 tasi aksiyadorlik jamiyati, 411 tasi boshqa yo'nalishlarda muassasalar nomidan iborat. Mazkur nomlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish xalqimizning bugungi turmush tarzi, dunyoqarashi, qiziqishlari, orzu-umidlari haqida bizga qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Andijon viloyati ergonimlari o'zbek tili ergonimlarining eng katta bo'laklaridan biri sanaladi. Ularni 12 ta mikroko'lamchaga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq: ishlab chiqarish korxonalari, zavod va fabrikalar nomlari; avtomobil bilan bog'liq korxonalar nomi; yengil sanoat korxonalari nomi; oziq-ovqat korxonalari soni; savdo korxonalari nomlari; kiyim do'konlari nomi; ovqatlanish joylari nomi; ta'lim muassasalari bilan bog'liq muassasa, tashkilot nomlarini; sog'liqni saqlash korxonalari nomlari; maishiy xizmat ko'rsatish va madaniyat maskanlari nomlari; sport-sog'lomlashtirish maskanlari nomlari; maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari nomi. Har bir mikroko'lamcha o'z ichida kichik mikroko'lamlarga bo'linadi. Izlanishlarimiz natijasida ishlab chiqarish korxonalari nomlarini ifodalovchi 17 ta, oziq-ovqat korxonalarini nomini

---

«Город говорит с тобой»: Научные подходы к анализу медиаурбанистического дискурса // Известия Волгоградского государственного педагогического университета. – 2019. – № 8 (141). 129-133 с.; Козлов Р. И. Эргоурбонимы как новый разряд городской ономастики [электрон. ресурс]: Дисс. канд. филол наук: спец. 10.02.01. – Екатеринбург, 2000. – 151 с. ва бошқ.

[18] Курбонова Б. Корхона, муассаса номларининг семантик таснифи//Ўзбек тили ва адабиёти, 2014. 4-сон. 93 - 96 б.

anglatuvchi 10 ta, ovqatlanish joylari nomi bilan bog‘liq ergonimlar 12 ta ko‘lamcha aniqlandi. Ularning har biri yana kichik ko‘lamchalarga ajratilib o‘rganildi. Aniqlangan ergonimik ko‘lamchalarning har bir qatlami o‘z qatlamga oid ergonimlar, ingliz tiliga oid ergonimlar, aralash ergonimlarga ajratildi. Bu ergonimlarni qamrab olgan mikrotizmining ichki tuzilishi aniqlash va undagi elementlarning o‘zaro munosabatlarini belgilash imkonini berdi. Birgina savdo korxonalarining nomlarini ifodalovchi ergonimlarni misol qilib keltirsak. Davlat statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra mamlakatda 177 011 ta savdo korxonalari mavjud bo‘lib, ularda 9127 tasi Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning 299 tasi tadqiqotga jalb etildi. Savdo korxonalari nomini ifodalovchi ergonimlarning o‘zbek va ingliz tillaridagi holati solishtirilganda, asosiy ta’kid ingliz tiliga tushayotganining guvohi bo‘lindi. O‘z qatlamga oid ergonimlar 70 ta, ingliz tiliga oid 77 ta, aralash yasalgan 152 ta ergonim aniqlandi (1-jadval).

**1-jadval**

**Savdo korxonalari nomini ifodalovchi ergonimlarning leksik-semantik guruhlari**

| № | Yo‘nalishlar nomi | O‘z qatlamga oid ergonimlar | Ingliz tiliga oid ergonimlar | Aralash ergonimlar |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Savdo markazlari | 23 | 3 | 9 |
| 2 | Qurilish mollari magazinlari nomlari | 13 | 20 | 21 |
| 3 | Xo‘jalik mollari magazinlari nomlari | 6 | 3 | 2 |
| 4 | Oziq-ovqat magazinlari nomlari | 17 | 37 | 86 |
| 5 | Kitob do‘konlari nomlari | 6 | 1 | 1 |
| 6 | Madaniy tovarlar savdosi do‘konlari nomlari | 2 | 5 | 1 |
| 7 | Avtomobil savdosi do‘konlari nomlari | 1 | - | 5 |
| 8 | Mebel do‘konlari nomlari | 2 | 8 | 27 |
| | Jami | 70 | 77 | 152 |

Ingliz tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilingan *«Indesit», «Ley home», «My home», «Viney», «Tirol», «Modern doors»* va *«Muzayyana women shop», «Navruz mall», «To‘raobod village», «O‘zbegim» trade center, «Havas Travertin»* kabi aralash usulda yasalgan ergonimlarning faol qo‘llanishi kuzatildi.

Ergonimlarning qo‘llanilishida parallel ko‘rinishlar yuzaga kelishiga alohida e’tibor qaratildi. Masalan, *«O‘zbegim» trade center, «Navruz mall», «Yangi bozor» savdo markazi* ergonimlari tarkibida qo‘llangan *«trade center, «mall», «savdo markazi»* leksemalari, aslida, bir-biriga yaqin ma’nolarni anglatadi, lekin ular ergonimlar tarkibida kelib, o‘ziga xos funsional-uslubiy bo‘yoqdorlikni hosil qilish uchun xizmat qilmoqda.

Tahlil qilingan ergonimlarning har biri o‘z ma’nosiga, funksional-uslubiy belgilariga ega. Masalan, aviachiptalarga, mehmonxonalarga oldindan buyurma berish va sotib olish, sayohatlarni tashkil etish bilan shug‘ullanadigan

zamonaviy xizmat turiga *«Easy booking»* deyiladi[19]. Mazkur nom inglizcha *easy* va *booking* so'zlaridan olingan bo'lib, quyidagi ma'nolarni anglatadi: **easy** 1) yengil, qiyin bo'lmagan; 2) yengil, og'irlik qilmaydigan; 3) qulay, yoqimli; 4) tinch, osoyishta, xotirjam; 5) shoshilmay, bemalol; 6) chiqishadigan, ko'nuvchan,yumshoq;7) erkin, bemalol, tabiiy; 8) ta'minlangan, badavlat. 2. Osonlik bilan, qiyinchiliksiz. **Booking** 1) berilgan buyurtmalarni daftarga qayd qilish; 2) chipta (biletlar)ni sotish; 3) kinofilmlarni ijaraga berish uchun shartnoma tuzish; 4) geodezik kuzatishlarni qayd qilish[20].

*Easy* leksemasining1-banddagi 1), 2), 3), 4), 5), 7) va 2-banddagi ma'nolar bilan ***booking***ning 2-ma'nosi e'tiborga olinib, nom yaratilgan. Birgina Amerikada *«Easy booking»* bilan shug'ullanadigan 1000 dan ortiq firmalar faoliyat ko'rsatadi[21]. Ingliz tilining dunyo bo'ylab keng yoyilishi natijasida o'zbek tilidan ham *easy* leksemasi ishtirokida yasalgan *«Easy Agency», «Easy market», «Easy Code», «Easy pharm», «Easy 7», «Easy trade», «Easy Line Tour», «Easy School»* kabi ko'plab leksik birliklar paydo bo'ldi.

Dissertatsiyaning **"O'zbek va ingliz tillarida ergonimlarni yaratish tamoyillari"** deb nomlangan ikkinchi bobi uch bo'limdan iborat. Bobning birinchi bo'limi **"O'zbek tilida yaratilgan ergonimlarning lingvistik tadqiqi"** deb nomlanadi. Mazkur bo'limda ichki imkoniyat asosida hosil qilingan ergonimlar tahlil etildi va ichki imkoniyat asosida yasalgan ergonimlarning yasalish omillari aniqlandi. Tilning butun mohiyati uning ichki tomonida ro'y berayotgan hodisalarga bog'liq bo'ladi. Mutaxassislar hamma vaqt ham buning tagiga yeta olmaydi. Til birliklarining qiziq tomoni shundaki, u til egalari tomonidan oson ajratiladi, lekin lingvistlar tomonidan qiyin aniqlanadi[22]. Buni Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan ergonimlar misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, umumiy ovqatlanish bilan bog'liq korxona nomlarini bildiruvchi ergonimlarni xalq vakillari oddiygina qilib *oshxona, restoran* yoki *choyxona* deb atab qo'ya qoladi. Tilshunoslar esa ularning qaysi tamoyil asosida nomlangani, qaysi tildan olingani, qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgani, funksional-uslubiy, lingvomadaniy, pragmatik va hokazo xususiyatlarini hisobga olib ish ko'radilar. Misol uchun Andijon viloyatidagi *«Al-Hilol», «Asaka bo'yin go'shti», «Ahmadillo», «Archazor shashlik», «Asilbek shashliklari», «Besh yulduz», «Bir zumda», «Burger», «Vostok», «Vladivostok», «Delfin», «Do'lma», «Zaytun», «Lazeez», «M-Rizo»* milliy taomlari, *«Rustamjon shashlik», «Ugolok»* kabi oshxona nomlarini yuqoridagi tamoyillar asosida tahlil qiladilar. Bu jarayonda, albatta, birinchi galda ichki imkoniyat asosida yasalgan til birliklariga asosiy e'tibor qaratiladi.

Ichki imkoniyat asosida hosil qilingan ergonimlarning qoliplari rang-barang. Ular bir asosdan iborat bo'lgan sodda, tub; sodda, yasama, ikki asosli; uch asoslit; to'rt asosli; juft asosli; son ishtirok etgan ergonimlar; abbreviaturali

---

[19] https://easybooking.uz.
[20] Butayev Sh. Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'at. 80000 so'zlik, 282-283, 119-betlar.
[21] https://easybooking.uz.
[22] Нурмонов А. Лингвистик белги назарияси. – Тошкент: Фан, 2008. – 42 б. (48)

ko'rinishlarda uchraydi. Tadqiqqa tortilgan 1957 ta ergonimdan 616 tasi, ya'ni (31,4 %)i ichki imkoniyat asosida yasalgani aniqlandi.

Masalan, ishlab chiqarish bilan bog'liq korxonalar nomini ifodalovchi ergonimlar miqdori 166 ta, ulardan 52 tasi (31 %) ichki imkoniyat bilan yasalgan va quyidagi kichik guruhlardan iborat: a) bir asosdan iborat bo'lgan sodda, tub ergonimlar 4 ta (7,7 %); b) bir asosdan iborat bo'lgan sodda, yasama ergonimlar
3 ta: (5,8 %); d) qo'shma asosdan iborat bo'lgan ergonimlar 3 ta: (5,8 %); e) ikki asosdan iborat bo'lgan ergonimlar 14 ta: (27 %); f) uch asosdan iborat bo'lgan ergonimlar 17 ta: (32,7 %); g) to'rt asosdan iborat bo'lgan ergonimlar 2 ta: (3,8 %); h) juft asosdan iborat bo'lgan ergonimlar 6 ta: (11,6 %); i) son ishtirok etgan ergonimlar 1 ta: (1,9 %); j) abbreviaturali ergonimlar 2 ta: (3,8 %).

Tahlillar ergonimlarni hosil qilishda ichki imkoniyatdan foydalanish darajasining past ekanligini ko'rsatdi. Tayyor xorijiy nomlardan, xususan, inglizcha qoliplardan foydalanish ishlab chiqarish korxonalari, avtomobilsozlik, tibbiyot, sport-sog'lomlashtirish bilan bog'liq ergonimlarda kuchli seziladi. Bu holat «Davlat tili haqida»gi Qonun talablariga javob bermaydi va bizni ergonimlarni yaratishda ichki imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish ustida jiddiy bosh qotirishimiz kerakligini tasdiqlaydi.

Bobning ikkinchi "**Ergonimlarni hosil qilishda ingliz tilining ishtiroki**" deb nomlanadi. O'zbek tili lug'at tarkibining boyishi va takomillashuvida tashqi manba (resurs) muhim rol o'ynaydi. Umuman, har qanday til sof holda yashay olmaydi. Har bir tilning o'z ichki (intralingvistik) xususiyatlaridan kelib chiqqan holda chet tillardan so'zlarni o'zlashtirishi talab etiladi. Bugungi kunda dunyo bo'ylab tarqalayotgan xabarlarning 80 %ini qamrab olgan ingliz tili barcha milliy tillar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda va buning natijasida ularda ingliz tilidan olingan yangi leksik birliklar paydo bo'lmoqda. Viloyatdagi ergonimlarning sezilarli qismi inglizcha komponentlar ishtirokida yasalgan. Fikrimizni isbotlash uchun birgina misolni keltiramiz. Respublika miqyosida *«Sirius star group», «Lau group», «Golden group», «Smis dental group», «Nia group Company», «Marjan Investment group», «Posso group»* va shu kabi *«group»* (inglizcha: *guruh*) so'zi ishtirok etgan 8 553 ta; *«Grand ta'lim», «Grand burger», «Grand pharm», «Grand Sherdor», «Grand Mir Hotel», «Grand Atlas», «Grand Canyon»* singari *«grand»* (inglizcha: *ulug'vor, muhtasham, yuqori*) so'zi ishtirokida yasalgan 766 ta; *«Golden Hause», «Golden Fish», «Golden Service», «Golden Rose», «Golden food», «Golden Tea», «Sanjar golden Hause», «Elegant gold»* va h.k. *«golden»* (*inglizcha: gold – oltin, tilla; tillarang; boylik, xazina, qimmatbaho narsalar + -en*) so'zi ishtirok etgan 1997 ta; *«City Hotel», «City Palace», «City kafe», «City burger», «City grill», «Dream city»* kabi *«city»* (inglizcha: *katta shahar*) so'zi qatnashgan 1696 ta mahalliy korxonalar nomi mavjud. Mazkur nomlarning aksariyati o'zbek tilining qonun-qoidalariga, xususan, chetdan so'z o'zlashtirish talablariga mutlaqo javob bermaydi. Bular ingliz tilining jahon bo'ylab keng yoyilishi natijasida boshqa tillarda paydo bo'lgani kabi o'zbek tilida ham keng tarmoq otgan lisoniy tartibsizlikning bir ko'rinishi xolos. Bu kabi nomlar, ularning

o‘zlashishi bilan bog‘liq muammolarning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish, amaliyotda qo‘llash bo‘yicha zaruriy tavsiyalarni ishlab chiqish davri keldi.

Dissertatsiyada tashqi imkoniyat asosida yasalgan 107 ta savdo korxonalari nomini anglatuvchi ergonimlar tahlilga tortildi. Bu ushbu qatlamdagi ergonimlarning 71%ini tashkil etadi. Bu holat bejizga emas, chunki davlat statistika qo‘mitasining ma'lumotlariga ko‘ra 2023-yilning may holatida respublikamizda sohada xorijiy kapital ishirok etgan korxonalarning soni 13089 tani tashkil etadi, shundan 378 tasi Andijon viloyatiga to‘g‘ri keladi.

Hozirda Andijonda 50 dan ortiq *hotel* va *hostel*lar mavjud bo‘lib, *«Bog‘ishamol Hotel»*, *«Hotel Monferan klassik»*, *«Hotel Elita»*, *«Hotel Karvon Saroy»* kabi ergonimlarda ingliz tilining kuchli ta'sirini ko‘rishimiz mumkin. E'tibor qilinsa, ularning bir qismi ingliz tilida qanday bo‘lsa, shu holda (*«Hotel Monferan klassik»*, *«Hotel Elita»*, *«Hotel Plaza»*, *«Hotel Plaza-2»*, *«Hotel Oriental»*, *«Farko hostel»)*, yana bir qismi esa o‘zbekcha so‘zlar bilan birga qabul qilindi. Qizig‘i, mazkur nomlarning birontasi Andijonga aloqador emas. Masalan, *«Hotel Monferan klassik»* birikmasidagi Monferan (aslida, Ogyust Monferran) so‘zi 1786 – 1858-yillarda Fransiyada tug‘ilib, Rossiyada yashagan va ijod qilgan mashhur me'morning ismiga aloqador. U klassik usulda Spasskiy, Isakiyev ibodatxonalari, Aleksandr minorasi kabi tarixiy inshoatlarni qurdirgani uchun uning nomi tarixga muhrlanib qolgan. Hozirda uning nomida Parij kommunasi va basketbol klubi ham bor. Monferran usulida qurilgani uchun Andijondagi mehmonxona ham shu nom bilan atalgan. Taqqoslash uchun boshqa davlatlardagi mehmonxona nomlariga murojaat etib ko‘rdik. Turkiyada 50840 ta, Rossiyada 37350 ta, Qozog‘istonda 3027 ta, Qirg‘izistonda 751 ta mehmonxona nomlari bo‘lib, ularning yasalishida ham ingliz tili komponentlarining ishtiroki kuzatiladi[23]. Masalan: O‘sh shahrida: *«Eko Dom»*, *«Osh Grand Hotel Chavo»*, *«Level»*, *«Ethno Osh»*, *«Uyut hause Osh»;* Ostona shahrida: *«Altun Eko Park»*, *«Best Western Astana»*, *«Grand Alatau»*, *«Neos»*; Istambul shahrida: *«Otel Ottoman's Peart»*, *«Otel Fehmi Bey»*, *«Istambul life»*, *«Otel Monors»*, Moskva shahrida: *«Sheraton Palase Moskva»*, *«Trips»*, *«Plase Garden Moscow MTC»* va h.k.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ergonimlarni hosil qilishda ichki imkoniyatga tashqi imkoniyatga qaraganda kam e'tibor qaratilgan. Bu nom yaratishga xorijiy elementlardan, jumladan, tayyor inglizcha qoliplardan foydalanishga ustuvorlik berilayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalari, avtomobilsozlik, tibbiyot, sport-sog‘lomlashtirish bilan bog‘liq ergonimlarni hosil qilishda ichki imkoniyatdan foydalanish darajasi past. Bu holat bizni nomlar ustida jiddiy o‘ylab ko‘rishimizni talab qiladi.

**"O‘zbekcha+inglizcha yoki aksincha qolipda yasalgan ergonimlarning lisoniy xususiyatlari"** deb nomlangan bobning so‘ngi bo‘limida aralash usulda hosil qilinib nomlangan ergonimlar tadqiqqa tortilgan. Aralash usul bilan hosil qilingan ergonimlar 13 ta mikroko‘lamchaga bo‘lindi. Misol uchun birgina umumiy ovqatlanish shoxobchalari nomini anglatuvchi leksik birliklarni olsak. 446 ta umumiy ovqatlanish shoxobchalari nomini anglatuvchi leksik

---

[23] otels.ru.

birliklarning 60 tasi (13,4 %)i aralash usul bilan hosil qilingan va ular quyidagi ko'rinishlarda uchraydi: **a) ikki asosli ergonimlar 33 ta:** *«Lag'mon hause»*, *«Lider osh»*, *«Bo'ston city»*, *«Oxxo burger»*, *«Semurg' burger»*, *«Tatli burger»*, *«Do'stlar Food»*, *«Chorar pizza»* va h.k. (55 %); **b) uch asosli ergonimlar 7 ta:** *«Les alles Andijan»*, *«Fayz Fast Food»*, *«Oxunjon fast Food»*, *«Sarbon fast Food»*, va h.k. ( 11,7 %); **d) juft asosli ergonimlar 4 ta:** *«Al Baraka cafe & restaurant»*, *«Mehmon restaurant & cafe»* va h.k. (6,7 %); **e) son ishtirok etgan ergonimlar 6 ta:** *«Bar 1982»*, va h.k. (10 %); **f) abbreviaturali ergonimlar 10 ta:** *«Kafe UzTurk»*, *«Uz-Antaliya»*, *«Uz Cafe»*, *«Usmonjon ss»*, *«Uz burger»* va h.k. (16,6 %).

Har qanday til lug'at boyligining o'sib borishida ekstralingvistik (tashqi) va intralingvistik (ichki) omillar muhim rol o'ynaydi. Ekstralingvistik omillar deganda til ichki imkoniyatlariga bevosita bog'liq bo'lmagan holda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, fan-texnika va boshqa sohalardagi o'zgarishlar, munosabatlarni tilda nomlash ehtiyoji tushuniladi[24]. Ingliz tilining dunyo miqyosida keng tarqalishi, shu tildagi axborotlar oqimining boshqa tillarga kuchli ta'siri nafaqat o'zbek tilida, balki dunyodagi barcha tillarda inglizcha leksemalarning faol iste'molda bo'lishiga sababchi bo'ldi. Fikrimizni birgina *market* leksemasi misolida isbotlashimiz mumkin. Mazkur so'z inglizcha *market [ma:kit]* so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida: 1 n. *bozor*; 2 v. *bozorga olib kelmoq, bozorda sotib olmoq* ma'nolarini anglatadi[25].

A.Saidov, D.Yahyoyevalarning «Inglizcha-o'zbekcha-ruscha soliq va iqtisodiyot atamalari lug'ati»da *market – bozor – rinok* tarzida berilgan[26].

Qizig'i, mazkur leksema o'zbek tiliga *bozor* yoki *bozorda sotib olmoq* ma'nosida emas, narsa, mahsulot, tovarlar sotiladigan joy, o'rin bilan bog'liq holda *do'kon, magazin* ma'nosida o'zlashdi. Ularni quyidagicha ma'no guruhlariga ajratish mumkin: 1) obyektdan ko'zlangan maqsadni ifodalovchi ergonimlar: *«Asr market»*, *«Baraka market»*, *«Barakot market»*, *«Fayz baraka market»*, *«Lazzat market»*, *«Nur market»*, *«Ro'zg'or market»*, va h.k.; 2) obyektning sifatini ifodalovchi ergonimlar: *«Antiqa market»*, *«Hamyonbop market»*, *«Zarbdor market»*, *«Zilol market»* va h.k.; 3) obyektning nimaga tegishli ekanligini ifodalovchi ergonimlar: *«Arena market»*, *«Bekat market»*, *«Globus market»*, *«Maydon market»* va h.k.; 4) obyektda sotiladigan mahsulotlarni ifodalovchi ergonimlar: *«Go'sht market»*, *«Dori market»*, *«Pepsi market»*, *«Stroy market»*, *«Suv market»*, *«Tillo market»*, *«Coca-Cola market»*, *«Chyorniy plash market»* va h.k.; 5) antroponimlarga asoslangan ergonimlar: a) obyektning kimga tegishli ekanini ifodalovchi ergonimlar: *«Ali market»*, *«Ayubxon market»*, *«Ahror market»*, *«Elyor market»*, *«Rahimboy market»*, *«San'atbek market»*, *«Shuhrat market»*, *«Market Omadjon»*, *«Market*

---

[24] Абдувалиев М., Абдувалиева Г. Ҳозирги замон инглиз тили тилшунослигида суффиксациянинг янги сўз ясовчи усул сифатидаги мақоми тўғрисида/Хорижий тилларни ўқитиш методикаси ва замонавий тилшуносликнинг долзарб муаммолари анжуман метериаллари. – Андижон, 2015 йил 5-6 февраль. – АДУ босмахонаси, 2015. 217-223 бетлар.

[25] Бўтаев Ш., Ирискулов А. Инглизча-ўзбекча ва ўзбекча-инглизча луғат. – Тошкент: Фан, 2009. – 310 б. (834)

[26] Саидов А., Яҳёева Д. Инглизча-ўзбекча-русча солиқ ва иқтисодиёт атамалари луғати. – Тошкент: Солиқ академияси, 2008. – 40 б.

G'ulomqodir», «Imomali market», «Omadyor market», «Yasmina market», «Sitora oilaviy market» va h.k.; b) obyektga qo'sh egalikni ifodalovchi ergonimlar: «Market Sherzod-Shuhrat», «Ali-Ahror market», «Zinger Bo'ston market» va h.k.; d) familiya asosida egalikni ifodalovchi ergonimlar: «Davronbekov's market», «Qo'ziboyev market» va h.k.; 6) ramziy ma'nodagi narsalar asosida hosil qilingan ergonimlar: «Dasturxon market», «Humo market», «Zam-Zam market», «Shumbola market», «Shoh market» va h.k.; 7) fitonimik asosda hosil qilingan ergonimlar: «Anor market», «Apelsin market», «Dinay market», «Eko market», «Zaytun market» va h.k.; 8) rang-tus, maza-ta'm asosida hosil qilingan ergonimlar: «Qizil market», «Sheerin market» va h.k.; 9) grafik poetizm asosida hosil qilingan ergonimlar: «ABE market», «M-MARKET», «M&Ms market», «Ideal MMM market», «S-market», «SD. MARKET», «TJ MARKET», «Shumoff market» va h.k.; 10) sonlar ishtirokidagi hosil qilingan ergonimlar: «Avazbek Mini market 473», «Mini market Orikzor-2», «7-up Market», «34-supermarket», «Supermarket F 77», «555 Mini market», «Stroymarket 707», «03 market», «777 Supermarket», «777 Market» va h.k.; 11) teonimlar asosida shakllangan ergonimlar: «Iymon market» va h.k.; 12) kosmonimlar asosida shakllangan ergonimlar: «Hilol market» va h.k.; 13) toponimlar asosida shakllangan ergonimlar: «Koreys market», «Maydon market», «Osiyo market», «Vodiy uy market» va h.k.

Alohida ta'kidlash kerakki, ingliz tilida market leksemasi ishtirokida yasalgan birliklarni o'zbek tiliga asl holatida qabul qilish amaliyoti ham uchraydi. Bunga «Afna market», «Grand market», «Grafers market», «Diposha market», «Family market», «Kids market», «Lyuks market», «Mega market», «Mister market», «Modern market», «Mrimo market», «Rich market», «Smart market», «Smail market», «Tirol market», «TipTop market», «Yado market» va h.k. ergonimlarni misol qilib olish mumkin.

Ingliz tilining «Oxsford» lug'atida market leksemasiga quyidagicha izoh berilgan: 1. *He people who might want to buy something, or a part of the world where something is sold* – U biror narsani yoki u narsa sotiladigan joyning bir qismini sotib olishni xohlaydigan odamlardan. 2. *Are you sure there's a market for the product?* – Mahsulot uchun bozor borligiga ishonchingiz komilmi? 3. *We estimate the potential market for the new phones to be around one million people in this country alone* – Biz yangi telefonlar uchun potentsial bozorni faqat shu mamlakatning o'zida bir millionga yaqin odamlardan iborat deb hisoblaymiz. 4. *The domestic market is still depressed but demand, aboard is picking up* – Ichki bozor hali ham tushkunlikka tushgan, ammo xorijda talab kuchaymoqda. 5. *The business or trade in particular product, including financial products* – Ma'lum bir mahsulot, shu jumladan, moliyaviy mahsulotlar bo'yicha biznes yoki savdo. 6. Ingliz tilida *the coffee market* – qahva bozori; *the economic market* – iqtisodiy bozor; *the commodities market* – tovar bozori; *the stock market* – fond bozori; *the job market* – mehnat bozori; *the housing market* – uy-joy bozor kabi birikmalar yasalgan.

Dissertatsiyaning **"Ergonimlarning pragmatik tadqiqi"** deb nomlangan uchinchi bobi ham uch bo'limdan iborat. Bobning birinchi fasli **"Ergonimlarni yaratishda neyming san'atidan foydalanish"** deb nomlanadi va unda nazariy va amaliy sanalgan, to'g'ri, muvaffaqiyatli nom berish, nomga tavsiya etish bilan shug'ullanuvchi neyming haqida so'z boradi.

XIX asrning so'nggi choragi va XX asr boshlariga kelib jahon iqtisodiyotining keng tarmoq yoyishi, yirik ishlab chiqarish korporatsiyalarining vujudga kelishi, keng hajmdagi mahsulotlarning yaratilishi, ularning ichki va tashqi bozorga chiqarilishi, ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida murosasiz raqobatning paydo bo'lishiga olib keldi. Yaratilgan mahsulotni reklama qilish, iste'molchilarga uning afzalliklarini tushuntirish va targ'ib qilish, eng muhimi, tovarlarni vaqtida sotish zaruratini keltirib chiqardi.

«Reklama har doim axborot manbai sifatida mahsulotni iste'molchiga tanishtiradi, qiziqtiradi, ommaviylashuvi va kelajagini ta'minlaydi, mahsulot aylanmasida katalizatorlik vazifasini o'taydi»[27].

Neyming kompaniya, brend yoki xizmat ko'rsatish bilan bog'liq nomni yaratish jarayoni bo'lib, u marketingda eng muhim tarkibiy qism sanaladi. To'g'ri tanlangan nom kompaniya rivojlanishnining garovidir. Neyming *semonemika* deb ham ataladi[28]. Xorijda bu xizmat professional darajaga ko'tarilgan, ayrim nomlar brend, ya'ni butun dunyoga mashhur taniqli nomlarga aylangan. Bunday nomlarda eski tuzum siyosati, kommunistlik g'oya ustuvor bo'lgan. Bunga Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatgan *«Большевик»* (poyabzal fabrikasi), *«Ильич»* (paypoq to'qish fabrikasi), *«Володарский»* (to'qamachilik fabrikasi), *«Коммунар»* (temir-beton zavodi) kabi korxona nomlarini olishimiz mumkin. O'zbekiston kabi ichki bozordan tashqi bozorga chiqayotgan davlatlar uchun neyming o'ta muhim ahamiyatga ega, chunki hozirda jahonda nafaqat neyming, balki unga yo'ldosh bo'lgan tushunchalar sifatida *semonemika, imidjmeyking, kopirayting,* (reklama matni), *brendologiya* sohalari ham jadal rivojlanmoqda. Ularning har biri alohida yo'nalish sanaladi.

Bizningcha, neyming va ergonimikani bir-biridan farqlash lozim. Neyming jarayonida ishlab chiqaruvchilarning barchasi faol ishtirok etadi. Ergonimlar esa neyming natijasi bo'lib, ularda birinchi planga nom chiqib qoladi va mazkur nom neyming natijasi sifatida undagi jarayonlarning barchasini qamrab oluvchi birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Bobning ikkinchi fasli **"Ergonimlarning grafik transformatsiyalari"** deb nomlanadi. Ergonimlarning xalqaro ahamiyatga ega bo'lishida, avvalo, mazkur nomlarning mahsulot qadog'i va qutisidagi, so'ngra gezeta, jurnal, televideniye reklamalaridagi, joylarga o'rnatilgan reklama yozuvlari muhim rol o'ynaydi. Katta harflarda, ko'rinarli va chiroyli qilib yozilgan nom mahsulot realizatsiyasining munosib muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

---

[27]Shahobbidinova Sh., Abdullayev B. Reklama matnlarini axborot birligi sifatida to'g'ri shakllantirish// "O'zbekistonda zamonaviy lug'atshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon: ADU nashriyoti, 2023. 252-256-b. (445)
[28] https://www.marketch.ru.

Hozirda ergonimlar reklamasida ularning qanday yozuvda, qanday shaklda va qanday rangda yozilishi ahamiyatlidir. Keyingi yillarda insoniyat faoliyatida infografika degan tushuncha paydo bo'lib qoldi. Mazkur so'z lotincha *informatio – xabardor qilish, aniqlik kiritish, ta'riflash* hamda yunoncha *graphikos – chizilgan* so'zlaridan olingan bo'lib, **informatsiya** (ma'lumot-axborotlarning umumiy xossalari, tuzilish qonuniyatlari, uni izlash va inson faoliyatining turli sohalarida qo'llash metodlari haqidagi fan sohasi[29] hamda **grafika** bo'yoq ishlatmasdan, chiziqlar va shtrixlar vositasi bilangina narsalarni tasvirlash san'ati, shu usulda ishlangan rasm, tasvir hamda nutq tovushlarini yozuvda ifodalovchi belgilar (harflar) tizimi; yozuv va alifbo harflarini, tovush va harf munosabatlarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi[30] ma'nolaridan o'sib chiqib, axborot taqdim etishning grafik usuliga aylangan. Bunga Andijon viloyati ergonimlari misolida ham guvoh bo'lishimiz mumkin. Viloyatda faoliyat olib borayotgan ergonimlar tarkibi turlicha va ularning grafik transformatsiyasi ham shunga mos ravishda rang-barang ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ergonimlarning grafik transformatsiyasidagi ko'rinishlarni 16 guruhga ajratib ko'rsatdik. Masalan, grafik transformatsiyaning kirill va lotin yozuvlarini aralash qo'llash turini olsak. Aslida, ergonimik nomni yozishda bitta yozuvdan foydalanish lozim, lekin «Студия красоты IMZARA», «Т+TISSOT наружные часы и браслеты», «LOFT мужской и женский салон», «GULNARA FARM сеть аптек», «BOSS GYM тренажёрный зал» kabi nomlar aralash yozuvda yozilgan. Bu amaldagi «Davlat tili haqida»gi Qonun talablariga javob bermaydi.

Bobning so'nggi fasli "**Andijon viloyati ergonimlarini tartibga solish bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlari**" deb nomlanadi. Professor M.E.Umarxo'jayevning fikricha: «Ilm-fan dunyosi uchun tarqoq, tartibsiz sur'atda yuzaga kelayotgan atamalar to'plamidan ko'ra yagona – tartibga solingan ilmiy tilni yaratish maqsadga muvofiqdir. Tartibsiz atamalar tilning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, uning aksi bo'lgan tartibli, aniq shakllangan atamalar fan rivojiga katta hissa qo'shishi mumkin»[31]. Shu bois, ularni talaffuz qilish, to'g'ri yozish va ulardan muloqot jarayonida o'rinli foydalanish o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor va ehtiromning yorqin namunasi sanaladi. Lekin, to'plagan materiallarimiz shuni tasdiqlaydiki, Andijon viloyati ergonimlarini og'zaki va yozma nutqda qo'llashda qator kamchiliklar mavjud. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga bir necha o'n yilliklar bo'lganiga qaramasdan, nomlarni yozishda beparvolik, bepisandlik kayfiyati hamon hukm surmoqda, o'zbekcha nom o'rnida xorijiy nomlardan foydalanish, davlat tili talablariga mutlaqo javob bermaydigan aralash ko'rinishdagi ergonimik nomlarni yasash amaliyoti izchil davom etmoqda.

Ergonimlarni yasash, yozma nutqda qo'llash bilan bog'liq imloviy, ishoraviy, grammatik va uslubiy xatoliklarning 22 ta holat aniqlandi:

---

[29] O'zbek tilining izoh lug'ati. 1-jild, 220-bet.
[30] Yuqoridagi manbaa. 2-jild, 512-bet.
[31] Умархўжаев М. Тил илми уммонига қўшилган томчи. – Тошкент: Akademnashr, 2013. 158-159 бетлар. (256)

Ergonimlarda «o'zbek», «O'zbekiston» so'zlarining yozilishi bilan bog'liq xatoliklar; bosh harflarning noo'rin ishlatilishi; sirg'aluvchi, jarangsiz, bo'g'iz undoshi *«h»* undoshi o'rnida chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz *«x»* undoshini qo'llash; portlovchi, chuqur til orqa, jarangli *«q»* o'rnida sayoz til orqa, portlovchi, jarangsiz *«k»* undoshini ishlatish; so'zlar tarkibida ayrim harflarni tushirib qoldirish; mantiqan noto'g'ri ergonimlar hosil qilish; ergonimlarni bosh va kichik harflarda yozish; qo'shma so'zlarning har ikki komponentini bosh harf bilan yozish; ergonimlarning ishlatilishidagi chiziqchaning noto'g'ri qo'llanishi; sonlarni noto'g'ri qo'llash; noo'rin qisqartmalardan foydalanish; *-al* artiklidan noto'g'ri foydalanish; o'zbekcha so'zlarni inglizcha variantda yozish; ruscha so'zlarni noto'g'ri yozish; arab tiliga oid til unsurlaridan foydalanish; ergonimlarda usmonli turk tiliga oid so'zlarni qo'llashdagi xatoliklar ham aniqlandi, tahlilga tortildi. Ergonimlar tarkibida ingliz tili elementlarining noo'rin qo'llanishi bilan bog'liq 11 ta ko'rinish qayd etildi. Korxona, tashkilot, muassasalarga nom berish va nom berishdagi salbiy holatlarning oldini olish yuzasidan 6 banddan iborat uslubiy ko'rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqildi: 1. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini mamlakatimiz va xalqaro miqyosda keng targ'ib qilish. 2. Xorijiy tillardagi, jumladan, inglizcha nomlardan o'rinli foydalanishni yo'lga qo'yish. 3. Xalqaro mezonlar, birinchi galda, neyming asosida korxona, tashkilot va muasasalarga nom qo'yish mezonlarini ishlab chiqish va mutasaddilarga zaruriy tavsiyalar berish. 4. Qo'yilgan nomlarning har bir hudud bo'yicha qat'iy reyestrini tuzish, o'zbek tilining umumiy talablariga javob bermaydiganlarni zudlik bilan almashtirish. 5. Davlat tilini rivojlantirish departamenti va uning hududlardagi bo'limlari tomonidan ergonimlarni tanqidiy-tahliliy o'rganish ishlarini yo'lga qo'yish, o'zbek tilining qonun-qoidalariga javob bermaydigan korxona, tashkilot, muassasa, firma rahbarlariga nisbatan ma'muriy jazo choralarini belgilash. 6. Ommaviy axborot vositalari, radio va televideniyada ergonimlarning sinxron holatini o'rganib borish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ergonimlarni qo'llashdagi bu kabi xatoliklarga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Boisi yaratilgan har bir ergonim millat tafakkuri, fikrlash dunyosi, bugungi kundalik turmush tarzi, mamlakatning ishlab chiqarish quvvati, mahsulot sifati va shu kabi nozik masalalarni o'zida aks ettirishi bilan e'tiborlidir. Qolaversa, ularning har birida ona tilimizning boyligi, jilosi zuhr berib turadi.

## XULOSA

1. Onomastika dunyo lingvistikasining eng boy va sermahsul qatlamlaridan birini tashkil etadi. Ularni o'rganish nafaqat til bo'yicha, balki muayyan xalqning tarixi, uning dunyoqarashi, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va maishiy hayoti to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin. Bundan o'zbek tili ham mustasno emas. Ayniqsa, bugun dunyo tillari taqdirida yo'qolib ketish xavf solib turgan hozirgi davrda onomastik nomlarga qaytish, tarixiy va xalqaro tajribalarga tayangan holda yangi paydo bo'layotgan korxona, tashkilot,

muassasa, firma, do'kon va shu kabilarga munosib nom berish ona tilimiz barqarorligini ta'minlashda muhim tayanch vazifasini o'tashi mumkin. Zero, eng yaxshi nomlar tarix sahifalaridan aslo o'chmaydi. Ular insoniyat aql-zakovati, o'y-fikrlarining yaqqol ifodasi sifatida zamonlardan-zamonlarga, tillardan-tillarga ko'chib yuraveradi.

2. Mamlakatimizda yuz minglab korxona, tashkilot, muassasa nomlari faoliyat ko'rsatmoqda. Birgina Andijon viloyatida ularning miqdori 27161 tani tashkil etadi. Ulardan 18101 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyat, 1934 tasi oilaviy korxona, 216 tasi unitar korxona, 6459 tasi xususiy korxona, 40 tasi aksiyadorlik jamiyati, 411 tasi boshqa yo'nalishlardagi muassasalar sanaladi.

Mazkur nomlarning lingvistik tahlili onomastik nomlarning paradigmatik, sintagmatik, semantik xususiyatlarini oydinlashtirish imkonini beradi, onomastik ko'lamning iyerarxik tuzilishini belgilaydi va kichik ko'lamlarning alohida unsur sifatida sistemani tashkil etishdagi o'rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Onomastik ko'lam o'ziga xos xususyatlarga ega bo'lgan rang-barang va serqirra tizim sifatida o'zbek tilining leksik qatlamida alohida o'rin tutadi va o'z ichida ko'plab mikroko'lamlarga bo'linib ketadi. Antropoergonimlar, topoergonimlar, gidroergonimlar, zooergonimlar, kosmoergonimlar kabi kichik ko'lamchalar shular jumlasidandir.

4. Ergonimlar muayyan bir xalqning turmush tarzi, shu xalq yashayotgan mamlakatdagi ishlab chiqarish, mahsulot yaratish, targ'ib qilish va uni realizatsiya qilish jarayonlarini o'zida yaqqol ifodalovchi kichik tizimlar sanaladi. Ularda xalqning dunyoqarashi, tafakkuri o'z aksini topgan bo'ladi. Paradigmatik, sintagmatik, semantik, funksional-uslubiy, grammatik xususiyatlariga ko'ra ergonimlar bir-biriga zidlanadi, o'z navbatida umumiy nom asosida bitta chiziqda birlashadi.

5. Ergonimlar onomastik ko'lamning alohida mikroko'lami sifatida o'z ichida 12 ta mikroko'lamga ajraladi. Har bir mikroko'lam o'z navbatida iyerarxiya qonunlariga ko'ra kichik ko'lamchalardan iborat bo'ladi. Masalan, ishlab chiqarish korxonalari nomlarini ifodalovchi mikroko'lam 17 ta, oziq-ovqat korxonalarining nomini anglatuvchi mikroko'lam 10 ta, ovqatlanish joylari nomi bilan bog'liq ergonimlar 12 ta ko'lamchani tashkil qiladi. Ularning har biri yana o'z ichida kichik ko'lamchalarga ajraladi. Masalan, *market* leksemasi ishtirokida yasalgan do'kon nomlari 4 ta guruhga bo'linadi.

6. Tadqiqot ishiga viloyatdagi 27000 dan ortiq ergonimlar ichidan 1957 tasi tahlil uchun saralab olindi. Jami tanlamalarning 616 tasi ichki imkoniyat asosida yasalgani aniqlandi. 12 ta leksik-semantik guruhga mansub quyidagi tartibda tahlil qilib chiqildi.

Tahlillar ergonimlarni hosil qilishda ichki imkoniyatdan foydalanish darajasining past ekanligini ko'rsatdi. Tayyor xorijiy nomlardan, xususan, inglizcha qoliplardan foydalanish ishlab chiqarish korxonalari, avtomobilsozlik, tibbiyot, sport-sog'lomlashtirish bilan bog'liq ergonimlarda kuchli seziladi. Bu holat «Davlat tili haqida»gi Qonun talablariga javob bermaydi va bizni

ergonimlarni yaratishda ichki imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish ustida jiddiy bosh qotirishimiz kerakligini tasdiqlaydi.

7. Ergonimlarni hosil qilishda xorijiy tillarning, birinchi galda ingliz tilining ta'siri kuchli. Ishlab chiqarish korxonalari, zavod va fabrikalar nomini ifodalovchi ergonimlarning 53 tasi (32 %)i, avtomobilsozlikka oid 134 ta ergonimning 67 tasi (50 %)i, yengil sanoat va to'qimachilik bilan bog'liq ergonimlarning 25 tasi (17,7 %)i, savdo korxonalari nomini anglatuvchi ergonimlarning 77 tasi (25,5)i chet tillaridan, aniqrog'i, ingliz tilidan olingan. Ayrim sohalarda, masalan, mehmonxona, sport-sog'lomlashtirish, xizmat ko'rsatishda xorijiy ergonimlarning miqdori 70-80 % atrofida. Ularning aksariyati o'zbek tiliga o'zlashmagan *hotel, hostel, gold, group, lux, farma, tekstile* kabi so'zlar ishtirokida hosil qiligan. Bunday ko'rinish bugungi kun talablariga javob bermaydi.

8. Ergonimlar ichida aralash usulda yasalganlari sezilarli qismni tashkil etadi. Jumladan, ishlab chiqarish korxonalari, zavod va fabrikalar nomini ifodalovchi ergonimlarning 61 tasi (37 %)i, avtomobilsozlik bilan bog'liq ergonimlarning
38 tasi (28,3 %)i, yengil sanoat bilan bog'liq leksik birliklarning 94 tasi (66,2 %)i shu usul bilan hosil qilingan. Aralash usulda yasalgan ergonimlarning asosiy qismi inglizcha leksik birliklar ishtirokida yasalgani va aksariyatining o'zbek tili qonun-qoidalariga javob bermasligi bilan xarakterlanadi. Ularni yasashda subyektivizmga, bir yoqlamalikka, sun'iylikka yo'l qo'yilgan. Masalan, *«Andijon city», «Behzod kafesi», «Vodiy burger», «Lag'mon hause», «Lider osh», «Baraka davr med», «Madad farm Production», «Nargiz Med Farm», «Vodiy Bio Farm», «Ziyo farm plyus», «AGIF Medical lyuks clinic», «Childern's clinic Andijon»* va h.k.

Ayrim leksik birliklar ma'nosi asos tildan uzoqlashtirilgan, og'zaki nutqdagi shakli asos qilib olingan. Misol uchun *bilding* inglizcha *build* [*bild*] 1. n.
1) *tuzilish; shakl, uslub; 2) qad-qomat; 2.* v. (*built*) 1) *qurmoq, tiklamoq; 2) yaratmoq; 3) ishonmoq, suyanmoq* > builder [*bilda*] n.1) *quruvchi; 2) duradgor* > boulding [*bildiŋ]* n. *bino, imorat* ma'nolarini bildiradi. *Murodjon bilding, Rustamjon bilding, Shohruhbek bilding* tarzida qo'llashimiz o'zbek tili me'yorlariga zid keladi.

9. Ergonimika sohasiga *neyming san'ati*, uning ortidan zamonaviy ishlab chiqarish, mahsulot yaratish, unga munosib tijoriy nom berish, targ'ib qilish, saqlash va sotish bilan bog'liq *semonemika, imidjmeyking, kopirayting,* (reklama matni), *brendologiya* singari yo'nalishlarning kirib kelayotgani ochiqlandi, ularning ergonimlarga aloqador joylariga izohlar berildi.

10. Ergonimlarni yasash, yozma nutqda qo'llash bilan bog'liq imloviy, ishoraviy, grammatik va uslubiy xatoliklarning 22 ta holati mavjud. Ergonimlar tarkibida ingliz tili elementlarining noo'rin qo'llanishi bilan bog'liq 11 ta ko'rinish qayd etildi. Ularni qo'llash bo'yicha 6 banddan iborat uslubiy ko'rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

SCIENTIFIC COUNCIL PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01
AWARDING SCIENTIFIC DEGREE AT
ANDIJAN STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES

ANDIJAN STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES

SIDDIKOV JAKHONGIR NOSURILLOEVICH

LINGUISTIC STUDY OF ERGONYMS
(based on materials in Uzbek and English)

10.00.06 – Comparative Literary Criticism, Contrastive Linguistics
and Translation studies

ABSTRACT
of dissertation of the doctor of philosophy (PhD) in PHILOLOGICAL SCIENCES

Andijan – 2024

| | |
|---|---|
| **Scientific supervisor:** | **Rustamov Dilshodbek Abduvahidovich** <br> Doctor of Philological Sciences, Professor |
| **Official opponents:** | **Abduvaliev Maxamatjon Arabovich** <br> Doctor of Philological Sciences, Professor |
| | **Muyassar Saparniyazova** <br> Doctor of Philological Sciences, Professor |
| **Leading organization:** | **Namangan state university** |

**V.A.Vositov**
Chairman of Scientific Council awarding scientific degree, Doctor of Philological Sciences Associate Professor

**A.Dj.Ataboev**
Scientific Secretary of Scientific Council awarding scientific degree, Doctor of Philosophy in philological science (PhD), Associate Professor

**M.I.Umarkhodjaev**
Chairman of the Scientific Seminar under the Scientific Council awarding scientific degree, Doctor of Science in Philology, Professor

**INTRODUCTION (annotation of the dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD))**

**Relevance and necessity of the dissertation topic.** In the first quarter of the 21st century, the transformations in global politics, economy, social life, and the thinking of nations and peoples radically changed perspectives in all fields of science. These changes were most prominently reflected in national languages, which are considered a unique mirror of social life. The Uzbek language was no exception. During the years of Independence in our country, the state policy towards our native language was elevated to a new qualitative stage. Over the past four to five years, groundbreaking work has been carried out in the country on the «Strategic goals, priority directions, tasks, and future stages of the development of the Uzbek language and language policy»[1]. Recognized scientific research has been conducted at all levels of the Uzbek language. However, despite this, there are still numerous unresolved issues in the field of linguistics. One of these is the naming of enterprises, organizations, and institutions, which is an area known as ergonymy, a modern branch of onomastics.

Today, in world linguistics, the transformation of onims into research objects in various aspects is considered an important tool in illuminating the historical development and improvement of certain languages, in revealing the national, ethnic, socio-political, cultural history of peoples, and the unique aspects of national languages. Analyzing ergonomic units linguistically, expressing centuries-old historical-national traditions, culture and mental characteristics of our people on the basis of ergonims is a valuable profession as a pure Uzbek need, and it is important to linguists to observe, describe, compare, system-structural and statistical is setting the task of carrying out new research works on the basis of analytical methods.

As emphasized by President Shavkat Mirziyoyev in his speech at the ceremonial event dedicated to the 30th anniversary of the Uzbek language being granted the status of a state language: "It would not be wrong to say that the most frequently discussed and rightfully criticized issue in our society related to language is the matter of determining place names. Unfortunately, in public spaces, on streets, and on the facades of buildings, toponymic signs, various signs, and advertisements are often displayed in foreign languages, reflecting meanings and forms alien to our culture. This indicates a disregard for the requirements of the state language and our national culture and values, as well as a decline in overall literacy levels. In this regard, the Cabinet of Ministers, in collaboration with the Terminology Commission, must seriously study and regulate these issues with the participation of the wider public. Because naming social objects is not just a personal or private matter. It is a unique measure that clearly reflects our patriotism and cultural awareness. No one should ever forget

---

[1] A symbol of our national identity and independent statehood. President Shavkat Mirziyoyev's speech at the ceremony dedicated to the thirtieth anniversary of the granting of the state language status to the Uzbek language // Xalq sozi, October 22, 2019, No. 218 (7448). - 3 p

this"[2]. For the state of Uzbekistan, which is stepping into its Third Renaissance under the slogan "From National Revival to National Progress," it holds both theoretical and practical importance to collect, classify, and conduct linguistic research on the names of enterprises, organizations, and institutions that vividly reflect the centuries-old historical-national traditions, hopes and aspirations, feelings, moral values, and desires of our people. Based on these principles, this research undertakes the study of the ergonyms of the Andijan region for the first time. This underscores the relevance of the topic.

For the dissertation, normative-legal documents such as the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 dated February 7, 2017, "On the Action Strategy for the Further Development of the Republic of Uzbekistan," the Decree No. PF-5850[3] dated October 21, 2019, "On Measures to Radically Increase the Prestige and Status of the Uzbek Language as a State Language," and the Decree No. PF-6084 dated October 20, 2020, "On Measures to Further Develop the Uzbek Language and Improve Language Policy in Our Country"[4] will serve as the foundational basis.

**Correspondence of the research to the priorities of the development of science and technology of the republic.** Dissertation research was carried out within the framework of the priority direction of the republic's science and technology development I "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and the democratic state".

**The degree to which the problem has been studied.** In global linguistics, during the 1960s and 70s, the names of enterprises, organizations, and institutions were studied as urbanonyms in the research of J.R. Mellor, F. Aurigi, G.Aiyelo, Z. Jones, and M. Karrabek[5]. Similarly, in Russian linguistics, several works in this direction were conducted by V.V. Kolesov, A.A. Yunakovskaya, O.A. Leontovich, and R. Kozlov[6].

---

[2] A symbol of our national identity and independent statehood. President Shavkat Mirziyoyev's speech at the ceremony dedicated to the thirtieth anniversary of the granting of the state language status to the Uzbek language // Xalq sozi, October 22, 2019, No. 218 (7448). - 3 p

[3] Mirziyoyev Sh.M. A symbol of our national identity and independent statehood // Speech at the ceremony dedicated to the thirtieth anniversary of the granting of the status of the state language to the Uzbek language // People's word. - Tashkent, October 22, 2019. - No. 218. -1-4 p.

[4] Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-6084 of October 20, 2020 on measures to further develop the Uzbek language in our country and improve the language policy // Xalq sozi, October 20, 2019. – No. 222-223.

[5] Mellor J.R. Urban Sociology in an urbanized society. – London: Routledge & Kegan Paul, 1977. – 328 p.; Aurigi A. Making the digital city. – Aldershot: Ashgate, 2005. – 236 p.; Aiello G., Tosoni S. Going about the city: Methods and methodologies for Urban Communication Research – Introduction // International Journal of Communication. – 2016. – Vol. 10. 1252-1262 p.; Jones R.H. The city is watching you // City talk: Urban Identities, Mobilities and Texualities. – Bern: University of Bern, – 2017. – 7 p.; Karrebek M. Food, language and the city : Constructing edible 'Danish-ness' in Copenhagen // Abstracts of the conference «City Talk: Urban Identities, Mobilities and Textualities». – Bern: University of Bern, 2017. – 8 p.

[6] Колесов В.В. Язык города. – М. : Высшая школа, 1991. – 192 с.; Юнаковская А.А. «Язык города» как лингвистическая проблема // Вестник Омского университета. – 2011. – № 3. –193-197 с.; Леонтович О.А. «Город говорит с тобой» : Научные подходы к анализу медиаурбанистического дискурса // Известия Волгоградского государственного педагогического университета. – 2019. – № 8 (141). –129-133 с.; Козлов Р. И. Эргоурбонимы как новый разряд городской ономастики [электрон. ресурс]: дис. … канд. филол наук: спец. 10.02.01. – Екатеринбург, 2000. – 151 с. ва бошқ.

Research has been conducted on various aspects of ergonyms, such as their role in the linguistic landscape (Moscow), their relation to advertising (Volgograd), the systematic nature of ergonyms (Makhachkala), their lexical-semantic and derivational properties (Samara), their graphic representations (Krasnodar), and their pragmatic aspects (Volgograd).

